



DAVAN-THE GREAT STATE OF THE FERGANA VALLEY

Sobiurov Jamshidbek,

2nd Stage Student Of The Faculty of history of Andijan
State Institute



Abstract: One of the most beautiful and unique places of Uzbekistan is the Ferghana Valley. According to such characteristics as climatic conditions, geographic location, Natural Resources, Fergana has been gaining attention since ancient times. Fergana's role in the history of our statehood is also one. In the II – I centuries BC there was one of the first state systems in the region here.



O'zbekistonning eng go'zal va betakror makonlaridan biri Farg'ona vodiysidir. Iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, tabiiy boyliklari kabi hislatlariga ko'ra Farg'ona qadimdan e'tibor qozonib kelgan. Farg'onaning davlatchiligimiz tarixida tutgan o'z o'rnini ham bir. Miloddan avvalgi II – I asrlarda bu yerda mintaqadagi ilk davlatchilik tizimlaridan biri mavjud bo'lgan.

Buyuk Temuriy shahzoda, Andijonning suyuqli farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona vodiysi xususida o'z asarida Farg'ona beshinchi iqlimdandir deb ta'kidlaydi. Ammo bu hudud haqidagi ma'lumotlar borasida ajablanarli jihatlar bor. Ulardan biri shuki, antik tarixning buyuk olimlari hisoblangan yunon-rim mualliflari asarlarida Farg'ona vodiysidagi davlatchilik haqida ma'lumotlar yo'q. Yana bir ajablanarli tomoni hatto "Avesto" (Zardushtiylarning muqaddas kitobi) da ham bu davlat turishida ma'lumotlar yo'q. O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasini egallagan bu hudud geografik jihatdan olganda uzoq qadimdan o'q dehqonchilik uchun juda qulay bo'lgan. Farg'ona vodiysi hamda farg'onaliklarning kelib chiqishi haqidagi jiddiy xulosa uchun arzigulik manbalar asosan Xitoy mualliflari asarlari (mil.avv. II – I asrlar) deyish mumkin. Xususan shunday mualliflardan biri Sima Szyan hisoblanadi.

Sima Szyan "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar o'tgan tarixini o'z ichiga oladi. Asarda O'rta Osiyo, uning 123-bobida, xususan Farg'ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Lekin u manbalarda bu vodiydagi yurt Farg'ona deb yuritilmagan. Farg'onani Xitoyliklar Davan (ulug' Van) deb nomlashgan.

Davan davlati tarixi bo'yicha tadqiqot ishlari uzoq yillardan beri olib borilmoqda, so'ngi yillarda O'zbekistonlik olimlardan A.Asqarov, A.Xo'jayev, B.Matboboyev, A.Anorboyev, S.Qudratov, B.Abdulg'oziyeva, B.Abdullayev kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma

manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borishmoqda, lekin olib borilayotgan bu samarali ishlarga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg'ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi.

Farg'onaning ma'muriy bo'linishi haqida so'z ketganda, eng avvalo, Xitoylik mualliflarning "Davanda" (Farg'onada) yetmishga yaqin katta kichik shaharlar mavjud, Davan va Daxya (Baqtriya) o'rtasida o'xshashliklar ko'p" kabi guvohliklari diqqatni tortmay qilmaydi.

Albatta bu jarayonlar uchun dunyoga mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'lining o'rni beqiyos hisoblanadi. Aynan mana shu davrda Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna shaharlar paydo bo'ldi. Qadimgi Davan davlatining poytaxti Ershi shahri hisoblanadi.

O'sha paytda Ershi atrofi bilan – uzumzorlardan iborat bo'lgan. Bu yerda Xitoyliklar "Musu o'ti" deb atagan bedapoyalar yastanib yotardi. Ushbu davlat Xitoyliklar "Samoviy otlar" deb ta'riflagan uchqur arg'umolqlari bilan ham mashhur edi. Xitoyda Davan otlari haqida hatto qasidalar bitilgan. Eramizdan avvalgi 104-yilda aynan ushbu otlarni qo'lga kiritish uchun Xitoyning 60 ming nafarlik askari Ershiga hujum qiladi. Biroq istilochilar mag'lubiyatga uchrab, yana ortiga qaytishga majbur bo'lishadi.

Ershi shahri Andijondan uncha uzoq bo'lmagan joyda, bor - yo'g'i 30 chaqirim narida joylashgan edi. Shu bois Andijonning qadimgi tarixini Davan davlati tarixi, Qoradaryo bo'yida joylashgan Dalvarzintepa, Eytalon madaniy yodgorliklari bilan uyg'un holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ershi – hozirgi Andijon viloyati Marhamat tumanidagi Mingtepa o'rniga to'g'ri keladi. Ershi qadimda Farg'ona markazi, hukmdor qarorgohi hisoblanib, ikki qator devor bilan o'ralgan. Hukmdor saroyi aftidan shahar ichki qismida, tashqi qismida esa hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari joylashgan. Zikr etib o'tilgan oziq-ovqat, qurol-aslaha omborlari ham shaharning ichki qismidan o'rin olgan. Bu yurt aholisi ilgaridan oqar suvlardan iste'mol qilib kelgan bo'lsa-da, xitoyliklar bosqini davrida bosqinchilar tomonidan daryo suvining bo'g'ib qo'yilishi natijasida shahar hududida quduq qazish ham rasm bo'lgan.

Bizning shunday qadimiy davlatlarimiz borligidan faxrlansak arziydi, ularning tarixini o'rganish esa bizning burchimizdir. Zero: Tarixsiz-kelajak yo'q. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Kim bo'lishidan qat'i nazar jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamni yo'ldan urish, har-xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo: "O'zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar)"-T.: "Sharq"n-2001y.
2. R.T. Shamsiddinov, A. A. Is'hoqov: " Andijon tarixidan lavhalar"-T.: "Sharq"n-2013y.
3. Bo'riboy Ahmedov: "O'zbekiston tarix manbaalari (Qadimgi zamon va o'rta asrlar)"-T.: "O'qituvchi"n-2001y.